

ATROF-MUHITGA ZARARLI TA'SIR KO'RSATUVCHI OBYEKTLARNI QISQARTIRISH

Mahmudov Diyorbek Olimboy o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Gidrotexnika qurilishi yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri.

O‘zbekiston Respublikasi.

E-mail: diyorbek20030602@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada asosan atrof-muhitga ta’sir ko’rsatayotgan obyektlar va zararli chiqindilar havo ifloslanishiga olib kelishi bu insoniyat uchun juda katta ta’sir ekanligi haqida to‘xtalib o‘tiladi. Asosiy mazmuni eng avvolo o‘zimiz yashab turgan hududni ekologik taraflama toza tutish ifloslanishni oldini olish ko‘zda tutiladi.

Kalit so‘zlar: Pandemiya, trast jamg‘armasi, ekoharakat, texnogen ofatlar, vakillari, resurslardan, ekologik barqarorlikni, inventarizatsiyadan.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi salomatligini himoya qilish masalalari sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘rinda, albatta, so‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur sohaga talluqli 15 dan ortiq farmon va qarorlari ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish hamda aholi salomatligini saqlash sohasidagi islohotlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholi salomatligini saqlash sohasida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Xususan, pandemiya davri bo‘lishiga qaramasdan aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash 73 foizga yetkazilganligi hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lамини kengaytirish, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni yanada jadallashtirish, Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik trast jamg‘armasi faoliyati bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bilan bir qatorda Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar barpo etish ishlarini davom ettirish masalalariga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlandi. Darhaqiqat, so‘nggi 40 yil davomida Orolning qurigan tubida qariyb 400 ming gektarda o‘rmonzor tashkil etilgan bo‘lsa, 2018-yilning dekabr oyidan hozirgi kunga

qadar Orolning qurigan tubida 1 million 200 ming gektardan ortiq maydonga saksovul urug'lari sepildi va ko'chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamlar" - himoya o'rmonzorlari barpo etish ishlarining olib borilishi o'z navbatida Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi. Buxoro va Sardobada yuz bergen tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. So'nggi yillarda respublikamizda yuz bergen tabiiy va texnogen ofatlar bu boradagi mavjud tizimni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan aniq ijro mexanizmi, ya'ni "Favquloddagi holat to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda yuqorida qayd etilgan muammolar yechimiga qaratilgan Hukumat dasturi ishlab chiqish ko'rsatib o'tildi. Murojatnomada ishlab chiqilishi qayd etilgan yangi qonunlar va hukumat dasturlari birinchi navbatda barcha sohalar rivojiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen ofatlardan himoya qilish samaradorligini oshirish masalalarini qonunchilik jihatidan samarali tartibga solishga, huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligini oshirishga, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf qilishga, jamoatchilik nazorati tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va ekologik harakatning o'tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko'rsatib o'tildi. Xo'sh, o'tgan davrda eko harakat hamda uning qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhi bundan qanday xulosalar chiqardi, boshqacha aytganda, faoliyatimizda qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berdi? Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi

obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. O‘tgan davrda eko harakat deputatlari guruhi tomonidan qonunchilik tashabbusi asosida bitta yangi qonun hamda 8 ta qonunni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari ishlab chiqildi. Masalan, yangi tahrirdagi “O‘rmon to‘g‘risida”, hayvonot dunyosini va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonunlar qabul qilindi. Asosan bunda mamlakatimiz hududida atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatayotgan har xil turdag'i havoni ifloslovchi tashkilot binolari va obyektlarni kamaytirib, hech narsa ekilmaydigan joylarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Barchamizni xabarimiz bor muhtaram prezidentimiz tashabusllari bilan yurtimizda yashil makon loyihasi yo‘lga qoýildi va bu loyhada katta yoshdagilar va yoshlar birday qatnashib yurt uchun ona tabiat uchun birdamlik bilan harakat qilishdi

Xulosam shuki barchamizga ma’lum bugungi kunda biz ekologik taraflama ifloslanish juda yuqori bo‘lgan hududda yashayapmiz shuning uchun qo‘l qovishtirib o‘tirmasdan atrof-muhit holatini o‘nglash uchun boricha harakat qilib zaminimizni saqlab qolishimiz kerak. Yuqorida aytganimizdek atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar sonini qisqartirib aqilli texnologiyalardan foydalanib tabiatga ko‘rsatayotgan ta’sirimizni qisqartirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I. XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., "O‘zbekiston", 1997
2. S.Roziqov K, To‘xtayev S, Nigmatov A, Sultonov R . Ekologiya va atrof- muhit haqida yetti saboq . T., "Bioekosan", 2004
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., "O‘zbekiston", 1999 .S.Gulomov M, Jo rayev Y. Ekologiya : jinoyat va jazo. T., "O‘zbekiston".
4. Ekologiya va atrof- muhit haqida yetti saboq . T., "Bioekosan", 2004